

## BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

*Dadaboyeva Matluba Xoshimjon qizi*  
*QDPI magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy ta'lim berish jarayonida boshlang'ich sinf ona tili darslarida innovatsion usullardan foydalanishning afzalliklari metodik asosi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion metodlar, interaktiv metodlar, motiv, usul, metod, kichik guruhlarda ishlash, mustaqil fikrlash, zamonaviy ta'lim.

Hozirgi globallashuv davrida fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublari keng joriy etilmoqda. Ayniqsa, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida o'qitish jarayonida ilg'or, zamonaviy pedagogika texnologiyalarni keng ko'lamda tadbiq etish barcha turdagi ta'lim muassalari oldidagi eng dolzarb vazifalardan ekanligi ta'kidlanadi.

O'quvchilarning bilishga qiziqish ikki asosiy yo'l bilan tashkil etiladi. Birinchisi, o'quv materialining o'zi o'quvchilarda bilimga qiziqishni paydo qiladi. Chunki o'rganilmagan yangi narsa insonlar tomonidan qiziqish bilan o'rganiladi. Ikkinchi tomondan o'quvchilarning bilish faoliyatini qiziqarli tashkil etish, innovatsion metodlar, didaktik o'yinlar orqali bilimga qiziqtirish mumkin.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko'proq interaktiv metodlarga e'toborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. (Interaktiv so'zi inglizcha – *interaction*, ya'ni inter – aro, o'zaro, act – harakat ma'nosini anglatadi.) Interaktiv usullar – bu o'zaro harakat ya'ni hamkorlik asosida o'qitish demakdir.<sup>1</sup>

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil

<sup>1</sup> G'afforov T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: "Tafakkur", - 2012. B - 85

rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, keys-stady, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar, skarabey, bumerang, sinkveyn, suratli diktant kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, o'quvchilarning darsga faol qatnashishiga, bilimlarini egallashga undaydi. Masalan, "Men kimman yoki nimaman?" o'yini.

"Men kimman yoki nimaman?" o'yini o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, topqirlikka, izlanuvchanlikka, to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatish va nutq ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bu o'yinda mavzuga doir shakl, biror predmet rasmi yoki kasb – hunar tasvirlangan rasm bo'lishi mumkin. Doskaga bir o'quvchi chiqariladi va uning boshiga aniqlanadigan narsa, shakl, rasm kiydiriladi. Kiydirilgan narsani o'quvchi ko'rmaydi. Sinfdagi o'rtoqlarning boshidagining belgilarini navbat bilan aytib turadilar. Ular aytib turib belgilarni diqqat bilan eshitib, mushohada qilib, o'zining kimligini, ya'ni boshidagi shakl, narsaning nomini topishi kerak bo'ladi. Bu o'yinni 1- sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida "Mening oilam", "Uy hayvonlari", "Foydali sabzavotlar" mavzularida qo'llash o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi.

"Takrorla" usulida o'quvchilarning topqirlik qobiliyatlarini rivojlantiriladi. O'quvchilarning lug'at boyligini boyitadi, og'zaki nutqini rivojlantiradi va mantiqiy fikrlashga o'rgatiladi.

Bu o'yinda beshta yoki oltita o'quvchilardan iborat guruhchalar ishtirok etadi. Birinchi o'quvchi mavzuga doir terminlardan birini aytadi. Ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan terminni qaytaradi va o'zi ham bitta so'z aytadi. Uchinchi o'quvchi avvalgi ikkita so'zni qaytaradi va bitta so'z qo'shib aytadi. Qaysi o'quvchi adashib ketsa yoki aytilgan so'zlardan qaytarib aytsa o'yindan chiqadi. Shu tariqa o'quvchilar guruhi davom etadi. Bu o'yinni tashkil etishdan maqsad aniq bo'lishi va o'quvchilarning qaysi bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlariga e'tibor qaratilishi muhim. Masalan, sifat so'z turkumiga oid so'zlarni ayting:

1-o'quvchi: chiroyli

2-o'quvchi: chiroyli- baland

3-o'quvchi: chiroyli- baland - odobli

4-o'quvchi: chiroyli- baland- odobli- katta

5-o'quvchi: chiroyli – baland – odobli- katta- qizil

O'quvchi so'zlarni ketma-ket aytishda xatoga yo'l qo'yasa o'yindan chiqadi. Xuddi shu taxlitda 4- sinf ona tili darslarida "So'z turkumlari", "Sifat yasovchi qo'shimchalar", "Ot so'z turkumi" mavzularini o'rganishda, 1- sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida "Mening oilam", "Uy hayvonlari", "Oy Yerdan

kattami” va boshqa mavzularni o‘rganishda ham bu usuldan foydalanish mumkin. Ayniqsa bu o‘yin darslarni umumlashtirish va takrorlash darslarida qo‘l keladi. Bunday usullar o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq uyg‘otadi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslari innovatsion texnologiya asosida tashkil qilinganda, asosan, o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi, umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko‘mak beradilar, o‘quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi, o‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga, o‘qishga, ta‘lim olishga shaxsan mas‘ullikni his qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, interaktiv usullar darsning qiziqarliligi va ta‘sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarni ta‘lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi. Innovatsion usullardan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas‘uliyatni sezish, tahlil qilish, eng asosiysi, o‘quvchini fanlarni qiziqarli tarzda tashkil etishiga olib kelishi bilan o‘quv materiallarini o‘quvchilar tomonidan yuqori darajada o‘zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi o‘qitishning ilg‘or, samarali usullarini izlab topishi, yoxud ma‘lum bo‘lgan usul unumli, ijodiy ravishda mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llashlari zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni
2. G‘afforov T. Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: “Tafakkur - 2012.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, -2004.
4. Qosimova K. va boshqalar. “Ona tili o‘qitish metodikasi” Boshlang‘ich ta‘lim fakultetlari talabalari uchun darslik. - Toshkent: “Nosir”, -2009.